

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**OCHILOVA NAFISA USMANOVNA**

**PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR (BOBUR)”  
ROMANINING INGLIZCHA TARJIMALARIDA LINGVOSTILISTIK  
XUSUSIYATLAR IFODASI**

**10.00.06. – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**UDK:81'37:**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**  
**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology**

**Ochilova Nafisa Usmanovna**

Pirimkul Qodirovning “Yulduzli tunlar (Bobur)” romanining inglizcha tarjimalarida lingvostilistik xususiyatlar ifodasi.....3

**Очилова Нафиса Усмановна**

Выражение лингвостилистических особенностей в английских переводах романа Пиримкула Кадырова «Звёздные ночи (Бабур)».....23

**Ochilova Nafisa Usmanovna**

Expression of Linguostylistic Features in the English Translations of Pirimkul Kadyrov's Novel “Starry Nights (Babur)” .....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**OCHILOVA NAFISA USMANOVNA**

**PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR (BOBUR)”**  
**ROMANINING INGLIZCHA TARJIMALARIDA LINGVOSTILISTIK**  
**XUSUSIYATLAR IFODASI**

**10.00.06. – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.3.PhD/Fil1987 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Jo'rayeva Malohat Muhammadovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Xajiyeva Feruza Melsovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Xoshimova Dildora Madaminovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «22» may soat 05<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (605 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «23» aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil «23» aprel dagi 25-15 - raqamli reestr bayonnomasi.)



**D.S.O'rayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Z.I.Rasulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

**F.M.Xajiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tarjimashunosligining kundan-kunga taraqqiy etib borayotgani natijasida turli soha vakillari samarali hamkorlik oʻrnatish maqsadida tillararo muloqot, madaniyatlararo tushunish haqida yanada kengroq bilishga intilmoqda. Til, adabiyot va tarjima kabi muhim fanlararo aloqalarning shakllanishi har bir asar qirralarini ochib berishda, har bir xalqning madaniyati, tarixi va sanʼati xususiyatlarini oʻrganishda til, nutq va shaxsning ahamiyati, mazkur uchchala lisoniy birlikning uygʻunligi va ijtimoiy hayotda aks etishi doirasidagi izlanishlar koʻlamining tobora ortayotganligi har bir tilning oʻziga xosliklarini ochib berish imkonini beradi. Zero, tarjima jarayonida badiiy asarlarning lison hamda adabiyot birliklarni asliyatga muvofiqlik darajasini aniqlash, lingvostilistik jihatlarni ilmiy-nazariy jihatdan chuqurroq oʻrganish, milliy koloritni aks ettiruvchi soʻzlar tadqiqi masalalarini ilmiy asoslashga muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tarjimashunosligida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan muammolar va ularni bartaraf etish usullarini yorituvchi bir qancha fundamental loyihalar adabiyot, tilshunoslik va tarjimashunoslikning lingvomadaniy, lingvostilistik yoʻnalishlari kesimida matnni tarjima qilish imkoniyatlariga keng yoʻl ochadi. Metonimiya, metafora, sinekdoxa, kinoya, epitet, giperbola singari adabiy birliklarni leksik-stilistik jihatdan qiyosiy oʻrganish, gradatsiya sanʼatining tarjimadagi xususiyatlarini tadqiq etish gʻoyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, tarjima jarayonida idioma, analog, evfemizm va tasviriy ifodalarni qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish, asar tarjimasida din va urf-odatlariga oid soʻzlar, milliy koloritga mansub boʻlgan realiyalar mohiyatini asoslash tillararo milliy-madaniy farqlarni yorqin namoyon etadi.

Mamlakatimizda istiqloq yillarida oʻzbek adiblari asarlarini oʻzbek tilidan xorijiy tillarga tarjima qilishga boʻlgan eʼtibor keskin oshdi. Bugungi yangi Yangi Oʻzbekistonda ilm-fan va texnikaning jadal taraqqiy etishi, gʻarb mamlakatlarida sharq xalqlarining vakili sifatida oʻzbek madaniyatini oʻrganishga boʻlgan qiziqishning ortib borishi, ulugʻ ajdodlarimiz merosi boʻlmish qoʻlyozmalar qatorida zamonaviy adabiyotimiz vakillari qalamiga mansub asarlarni mutolaa qilishga ishtiyoq kun sayin oshmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar jarayonida muhtaram Prezidentimizning “Biz oʻz oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulugʻ maqsadni qoʻygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulugʻbeklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, taʼlim va tarbiyani rivojlantirish, sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy gʻoyamizning asosiy ustunlari boʻlib xizmat qilishi lozim”<sup>1</sup>, deya taʼkidlagan fikrlari ilm ahlini yanada ilhomlantiradi. Zero, Abdulla Qodiriy, Choʻlpon, Pirimqul Qodirov kabi oʻzbek adabiyotining yirik namoyondalari ijodiga mansub badiiy durdonalarning chet tillariga tarjima qilinishi hamda P.Qodirovning “Yulduzli tunlar (Bobur)” romani

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy Majlisga murojaatnomasi. 29 dekabr, 2020 yil. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

ayni damda xorijlik kitobxonlarni ham o‘zbek xalqining ma’naviy olami, yuksak badiiy tafakkuri, tarixi, an’ana va qadriyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini qondirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yozuvchining yuksak badiiy qiymatga ega “Yulduzli tunlar (Bobur)” romani va uning tarjimalari tarjimashunoslik ilmiga keng yo‘l ochadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tarjimashunosligida tarjimashunoslikning nazariy asoslarini yaratish, matnni tarjima qilish usullari va imkoniyatlari, shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar hamda ularni hal qilish yo‘llarini o‘rganuvchi bir qator muhim ilmiy asarlar yozilgan. Shuningdek, tarjimashunoslikning alohida fan sifatida shakllanishida o‘z hissasini qo‘shgan I.Retsker, V.Vinogradov, S.Vlaxov, S.Florin<sup>2</sup> kabi taniqli rus olimlari, tarjima usullarini tizimlashtirish, muqobil tarjimaga erishish yo‘llarini har xil yondashuvlar orqali o‘rganishda xorijda J.S.Ketford, S.Basnet, P.Nyumark<sup>3</sup> singari yirik tarjimashunoslar ish olib borganligi alohida e’tiborga molik.

Bugungi kun o‘zbek tarjima faoliyatining istiqbollari nafaqat xorijiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish, balki, o‘zbek adabiyoti asarlarini jahon tillariga tarjima

---

<sup>2</sup> Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. Р.Валент, 2004. – 244 с.; 63. Виноградов В.В.О теории художественной речи. Из-во Высшая школа. 2005. – 240 с.; С.Влахов, С.Флорин. Непереводимое в переводе. Р. Валент, 2012. 406 с.

<sup>3</sup> Catford J.C.A linguistic Theory of Translation. – Oxford: Oxford University Press, 1995. – 110 p. Robinson D. Becoming a Translator. An Introduction to the Theory and Practice of Translation. – New York: Routledge. 2003. – 318 p.; Bassnett, Susan. Translation Studies. London and New York. “Routledge”, 2013. – 208 p.; Newmark, P. About translation. Vol. 74. Multilingual matters. 1991. – 184 p.

qilish masalasini ham o‘z ichiga oladi, hamda, o‘zbek adabiyoti asarlarini jahon tillariga tarjima qilinishi haqidagi tanqidiy fikrlar zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan, desak xato bo‘lmaydi. Ayniqsa, O‘zbekistonda chog‘ishtirma tilshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik va zamonaviy tarjimashunoslik sohasini rivojlantirishda G‘.Salomov, Q.Musayev, M.Baqoyeva, I.Gafurov, O.Muminov, N.Qambarov, M.Irisqulov, Q.To‘xtayeva<sup>4</sup> kabilarning asarlari nazariy-uslubiy ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda, badiiy matndagi tasviriy vositalar, stilistik sinonimlar, frazeologik birliklarning berilishi, olam milliy manzarasining milliy-madaniy xususiyatlari, badiiy tarjimaning lingvokulturologik va lingvostilistik xususiyatlariga oid tadqiqotlar Q.Musayev, D.Xoshimova, A.Sharipova, R.Shirnova, Z.Teshaboeva, G.Kenjavevaning<sup>5</sup> tadqiqot ishlarida amalga oshirilgan. Shuningdek, M.Javbo‘riyev, Sh.Isaqova, H.O‘.Yusupova<sup>6</sup> kabi olimlar tomonidan badiiy asar tarjimalarida milliy xarakter va tarixiy davr koloritini qayta yaratish muammolari tadqiq etilgan.

Dunyo va o‘zbek adabiyoti olamida omonimlar, sinonimlar, antonimlar, ko‘p ma‘noli so‘zlar, arxaizmlar, tarixiy so‘zlar, neologizmlar kabi so‘z guruhlari ikkala tilning leksikologiya, stilistika va tilshunosligida keng miqyosda tadqiq etilgan. Yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqot ishlaridan farqli ravishda, bizning tadqiqot ishimizda metafora, metonimiya, kinoya, o‘xshatish, epitet, evfemizm, zevgma, so‘z o‘yini kabi leksik-stilistik vositalar va frazeologik birliklar, maqol va matallar, milliy madaniyatni aks ettiruvchi so‘zlar va realiyalarni asl matnda qo‘llanilish xususiyatlari va ularni tarjimada ifoda etish, qayta tiklash usullari va lisoniy birliklarni tarjima qilish strategiyalari ikki xil tarjima nusxalarini qiyoslash asosida tarjima qilish texnologiyasi tizimlashtirildi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Navoiy davlat universitetining ilmiy tadqiqot rejasining “Adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjima ishi” mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

---

<sup>4</sup> Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – T., 1982. – B.236; Q.Musayev Tarjima nazariyasi asoslari. – T., 2005. –B.352; M.Q. Baqoeva Ingliz va Amerika adabiyotidan o‘zbek tiliga she‘riy tarjima va qiyosiy she‘rshunoslik muammolari. – T., 2015. – B. 288; I.Gafurov, O.Muminov, and N. Qambarov “Theory of translation”. –T., 2012. p; Iriskulov M.T., Kambarov N.M., Tukhtaeva K.D. Translation Theory and Practice. Coursebook, Tashkent:2020.- P.448

<sup>5</sup> Мусаев К. Стилистические вопросы художественного перевода с английского языка на узбекский. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд: 1967 – С. 25; Xoshimova D. “Boburnoma” matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi. filol.fan...dok. (DSc) dis.avtoref. – Toshkent: 2018. – B.74 Sharipova A. Stilistik sinonimlar tarjimasining lingvokulturologik xususiyatlari. filol. fan....dok.(PhD) dis.avtoref. – Toshkent: 2017. – B. 22 Shirnova R. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi. Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent: 2017.– B. 26 Teshaboeva Z. “Boburnoma”ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklar va ularning milliy-madaniy xususiyatlari. Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. – Toshkent: 2017. – 20 b. Kendjaeva G. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani tarjimalarida milliy manzaraning lingvomadaniy ifodasi (asliyat va M.Safarov, K.Ermakova, M.Riiz tarjimalari asosida). Filol. fan. nomz. ... dis. avtoref. – Buxoro: 2023. – B.22;

<sup>6</sup> Javbo‘riyev M. Badiiy tarjimada milliy xarakter va tarixiy davr koloritini qayta yaratish (O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” tarixiy romanining nemischa tarjimasini misolida). Filol.fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1991. – B.202; Isaqova Sh. Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi (Oybekning “Navoiy” romanining frantsuzcha tarjimasini misolida). Filol.fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2004. – B.132; Yusupova H.O‘. O‘zbek xalq og‘zaki nasri namunalarning inglizcha tarjimalarida milliy koloritning ifodalanishi (ertaklar, latifalar misolida). Filol.fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – B.26.

**Tadqiqotning maqsadi** Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar (Bobur)” romanining inglizcha tarjimalaridagi lingvostilistik xususiyatlarni aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

tarjima va stilistika bo‘yicha jahon va o‘zbek tilshunosligi hamda tarjimashunosligidagi ilmiy qarashlar va fikr-mulohazalarga munosabat bildirish;

badiiy asar tarjimasida so‘zlarning leksik-stilistik xususiyatlari hamda polisemantik so‘zlarning tarjimada aks etish muammolarini ochib berish;

metafora, metonimiya, kinoya, giperbola, epitet, evfemizm, gradatsiya, so‘z o‘yini, zevgma leksik-stilistik vositalarning tarjimada qanday namoyon bo‘lishini o‘rganish hamda tasviriy vositalarning pragmatik, leksik-semantik jihatlarini aniqlash;

idioma, analog va tasviriy ifodalarning tarjimada qiyosiy-tipologik tahlilini amalga oshirish;

maqol tarjimasiga yondashuvlar, maqollarni tarjima qilish usullari va asarda keltirilgan voqeliklarni tushuntirish;

asarlarda milliy koloritga oid realiyalarni leksik-stilistik vositalar bilan dalillash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar (Bobur)” romani va uning ingliz tilidagi I.To‘xtasinov, U.Yo‘ldoshev, A.Xamidov hamda K.Ermakova tarjimalari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar (Bobur)” romanining inglizcha tarjimalaridagi lingvostilistik xususiyatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida leksik-semantik, leksik-stilistik, qiyosiy-tipologik, transformatsion, kontekstual, statistik, pragmatik, lingvistik-madaniy kabi tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar (Bobur)” romani va uning tarjimalarida milliy-madaniy manzarani ifodalashda metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, kinoya, idioma, mubolag‘a, evfemizm, o‘xshatish, gradatsiya kabi badiiy uslub vositalarining samaradorligi aniqlangan;

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar (Bobur)” romanida leksik-stilistik vositalar: metafora, epitet, o‘xshatish, metonimiya va giperbola tarjimasida kompensatsiya, eksplikatsiya, analog tanlash usullari qo‘llanishi orqali ushbu birliklar semantikasining to‘liq ochib berilishida majoziy ma‘no hamda madaniy-tarixiy manzarani saqlab qolganligi dalillangan;

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar (Bobur)” romanidagi milliy-madaniy manzarani ifodalashda millatga xos bo‘lgan maxsus leksik birliklar, realiyalar: kiyim-kechak, xo‘jalik ishlari, qurol-aslaha, o‘simlik, qush va hayvon nomi bilan bog‘liq etnomadaniy leksemalar tarjimasida eksplikatsiya va generalizatsiya usullarining birlamchi qiymat kasb etishi asoslangan;

asardagi maqol va matallarni tarjima qilish jarayonida tarjimon milliy koloritni saqlashda va ulardagi mavzular, obrazlarni ifodalashda shakl va mazmun mutanosibligi va individual yondashuv tamoyillari yetakchilik kasb etishi isbotlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o‘zbek badiiy asarlarida xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini yoritib beruvchi leksik birliklarni ingliz tilida ifodalashda leksik-stilistik uslubiy vositalar tahlili asos bo‘lib xizmat qilishi hamda o‘zbek muallifi ijodida qo‘llaniladigan badiiy vosita va uning ingliz tiliga tarjimasini lingvokognitiv tahlili, tarjimada ushbu vositalarni aks ettirish usullari ochib berilgan;

asliyat matnining stilistik rang-barangligini tiklash maqsadida tarjima tilidagi konnotativ ma’noga ega leksik birliklarni tarjima qilish texnikasi va vositalaridan foydalanish, shu orqali badiiy matnda mavjud milliy-madaniy voqelik, ibora va maqollarni tarjima qilishning samarali usullari taklif etilgan;

badiiy matnga stilistik ma’no beradigan leksik-stilistik vositalarni (metafora, metonimiya, giperbola, sinekdoxa, epitet, kinoya, evfemizm, gradatsiya, so‘z o‘yini, zevgma tarjima strategiyalari asosida filologiya va tarjima bo‘yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlari uchun darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish imkoniyati belgilab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot ishida qo‘llanilgan usul va vositalarning zamonaviy tilshunoslik nazariyalari bilan uyg‘unligi, ishonchli manbalardan tadqiqot materiallarini olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, OAK tasarrufidagi maxsus hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, mavzudan chiqarilgan xulosalarning qat’iyligi, shuningdek, xulosalarning leksik-semantik, leksik-stilistik, qiyosiy-tipologik, transformatsion, kontekstual, statistik, pragmatik, lingvistik-madaniy tahlil usullari vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek badiiy asarlarining ingliz tiliga tarjimasini qiyosiy o‘rganishda, asliyat va tarjima orasidagi mazmuniy-uslubiy mushtaraklik va individuallik holatlarini aniqlashda, badiiy tarjima jarayonida leksik-stilistik vositalarni ifodalash yo‘llarini belgilashda, milliy madaniyatni ifodalovchi so‘z va iboralarni o‘girish strategiyalarini ishlab chiqishda, to‘laqonli tarjima uchun zamin yaratishda ilmiy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarjimashunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik, jahon xalqlari adabiyoti, tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti, madaniyatlararo muloqotga o‘rgatish fanlari bo‘yicha, tarjimon va filolog tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini, jumladan, “Stilistika va matn sharhi”, “Amaliy tarjima”, “Badiiy tarjima” kabi fanlarni o‘qitishda, darslik, o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda lingvokulturologiya terminlarining o‘zbekcha-inglizcha izohli lug‘atini tuzishda, maxsus kurslar o‘tishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** P.Qodirovning “Yulduzli tunlar (Bobur)” romanining inglizcha tarjimalarida lingvostilistik xususiyatlar ifodasi tadqiqi bo‘yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar (Bobur)” romani va uning tarjimalarida milliy-madaniy manzarani ifodalashda metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, kinoya, idioma, oksimoron, antiteza, mubolag‘a, evfemizm, o‘xshatish, gradatsiya

kabi badiiy uslub vositalarining samaradorligiga doir nazariy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyasini (7 jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 3-yanvardagi № 01/4-02-son ma’lumotnomasi). Natijada badiiy matn tarjimasida milliy madaniyatga xos so‘zlarning ahamiyati va ularning tarjimada qanday aks etishi bo‘yicha tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashuviga erishilgan;

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar (Bobur)” romanidagi milliy-madaniy manzarani ifodalashda millatga xos bo‘lgan maxsus leksik birliklar, realiyalar: kiyim-kechak, xo‘jalik ishlari, qurol-aslaha, o‘simlik, qush va hayvon nomi bilan bog‘liq etnomadaniy leksemalar tarjimasida eksplikatsiya va generalizatsiya usullarining birlamchi qiymat kasb etishiga doir nazariy xulosalardan “O‘zbekiston-Fransiya” do‘stlik jamiyatida 56-01/10 “Tarixiy yodgorliklar targ‘ibotida O‘zbekiston ziyoratgohlari katalogining (besh tillik) innovatsion imkoniyatlari” mavzusidagi xorijiy loyihasida foydalanilgan (“O‘zbekiston-Fransiya” do‘stlik jamiyatining 2024-yil 25-iyuldagi №111-son ma’lumotnomasi). Natijada badiiy tarjima jarayonida leksik-stilistik vositalarni ifodalash yo‘llarini belgilashda, milliy madaniyatni ifodalovchi so‘z va iboralarni o‘g‘irish strategiyalarini takomillashuviga erishilgan;

Pirimqul Qodirovning “Bobur” romanida leksik-stilistik vositalar: metafora, epitet, o‘xshatish, metonimiya va giperbolaning tarjimada kompensatsiya, eksplikatsiya, analog tanlash usullari qo‘llanishi orqali ushbu birliklar semantikasining to‘liq ochib berilishida majoziy ma’no hamda madaniy-tarixiy manzarani saqlab qolganligiga oid nazariy xulosalardan Navoiy viloyati “Do‘stlik bayrog‘i” va “Znamya Drujbi” gazetalar tahririyati davlat unitar korxonasida chop etilgan “Do‘stlik bayrog‘i” va “Znamya Drujbi” gazetalardagi turkum maqolalarida foydalanilgan (Navoiy viloyati “Do‘stlik bayrog‘i” va “Znamya Drujbi” gazetalar tahririyati davlat unitar korxonasining 2023-yil 18-dekabrda 01-26/165-son ma’lumotnomasi). Natijada “Bobur” romanidagi leksik-stilistik vositalarning badiiy tarjimadagi milliy o‘ziga xosliklari ifodalanishi borasidagi materiallardan foydalanish imkoni yaratilgan;

asardagi maqol va matallarni tarjima qilish jarayonida tarjimon milliy koloritni, tiling madaniy merosini saqlashda, ulardagi mavzular, obrazlarni ifodalashda shakl va mazmun mutanosibligi va unga individual yondashuv tamoyillari yetakchilik kasb etishi bilan bog‘liq xulosa va natijalardan Navoiy viloyat teleradiokompaniyasida “Assalom, yangi kun”, “Diyor 24”, “Imkoniyat”, “Najot bilimda”, “Inson qadri” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 26-sentyabrda 01-02/167-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 1 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish e‘lon qilingan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy

attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan, 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi, 159 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tarjimashunoslikda lingvostilistikaning nazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, bob uch fasldan tashkil topgan. Mazkur 1-bobda tarjima va stilistika xususida ilmiy yondashuvlar talqini, tarjimada so'zning leksik-semantik, leksik-stilistik jihatlari, polisemantik so'zlarning tarjimada berilishi, omonim, sinonim hamda antonim so'zlar tarjimasida yuzaga keladigan muammolarga doir mulohazalar, dunyo tilshunosligi, adabiyotshunosligi hamda tarjimashunosligida mavjud ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilgan va ularga munosabat bildirilgan.

Bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi hisoblangan tarjima – murakkab va serqirra faoliyat bo'lib, u nafaqat bir tildan ikkinchi tilga o'girish, balki, inson dunyoqarashi, madaniyati, mentaliteti, urf-odatlar va an'alarini yetkazish, tarjimon mahorati bilan o'girilgan olamning lisoniy manzarasini boshqa millat vakillariga to'g'ri va tushunarli anglashni o'z ichiga oladi.

Tarixiy manbalarga nazar tashlab aytadigan bo'lsak, uzoq yillik tarixga ega tarjima san'ati qirralarini o'rganish va tadqiq etish, bu yo'lda o'rganish obyekti va uning mohiyatini aniq ko'rsatib berish uchun butun umrlarini sarflagan dunyo tadqiqotchilari hamda tarjimonlari tarjima faoliyatiga nisbatan o'z tajribalaridan kelib chiqib turlicha ta'riflashgan.

Rus tilshunos olimi A.A.Reformatskiy: "Turli tuman tillar mavjud ekan, tarjima ham zarur va zarurligicha qoladi, binobarin, borgan sari uning roli oshib boraveradi",<sup>7</sup> - deb ta'kidlaydi.

Tarjimon Yudjin Nayda "Tarjima – tarjimani qabul qiluvchi tilda manba tilidagi xabarning birinchidan, ma'no jihatidan eng yaqin tabiiy ekvivalentini, ikkinchidan esa uslub jihatidan takrorlashdan iborat",<sup>8</sup> deb hisoblaydi.

<sup>7</sup> Реформатский А.А. Лингвистические вопросы перевода. Иностранные языки в школе. – Москва. 2002. – С.121

<sup>8</sup> Nida E.A. Words and Thoughts. Research Article. UBS Translations, Volume 25, Issue 3. <https://doi.org/10.1177/026009357402500305>. July 1, 1974. – 65-79 p.

Amerikalik tarjimashunos olimi Mildred Larson: “Tarjima jarayonida qo‘shimcha tarzda asliyati tili orqali uzatilayotgan xabarning avvalo ma’nosiga ahamiyat berish”<sup>9</sup> kerakligini ta’kidlasa, fransuz, nemis va daniya tillaridan adabiy asarlarni, jumladan, bolalar adabiyotini o‘g‘irgan ingliz tarjimoni A. Bell tarjima haqida fikr yuritarkan, shunday deydi: “Tarjima – bir tilda (asl nusxa tilida) ifodalangan fikrni boshqa bir tilda stilistik va semantik ekvivalentlikni buzgan holda ifodalashdir. Tarjima, umuman olganda, iloji boricha, asl nusxa dinamikasini saqlab, qabul qiluvchi tilning normal til shaklidan foydalangan holda, manba tilining ona tilida so‘zlashuvchilari tushungan ma’noni beradi”<sup>10</sup>.

Biz o‘zbek tarjimashunosligida tarjima haqidagi nazariy qarashlari alohida ahamiyat kasb etgan mahoratli tarjimon olim G‘aybulla Salomovning: “Tarjima – bu ilhom, yuksak iste’dod va intuitsiya bilan chuqur filologik bilim, tinimsiz lug‘aviy mehnat hamda o‘rinli ilmiy sharhning qorishmasidan iborat nazariy-ijodiy jarayon”<sup>11</sup>, degan fikriga qo‘shilamiz. Haqiqatdan ham tarjima keng qamrovli mahorat, san’at va butun bir fan sifatida faktlarni va ularni tavsiflovchi tilni bilish va baholashni, tegishli til va maqbul tatbiqni o‘z ichiga olishi bilan xarakterlanadi.

Turli tillarning nutq normalarini va ularning tarixini o‘rganuvchi tilshunoslikning o‘ziga xos fanlari bo‘lgan stilistika va tarjima bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Stilistikani tillararo tushunish va kengroq ijtimoiy dinamika konsepsiyasiga asoslangan matn talqinining integratsiyalashgan fanlararo tadqiqoti sifatida ko‘rish mumkin.

“Stilistika bu (yun. *stylos* – yozuv, xat tayoqchasi) degan ma’noni anglatadi, tilning leksik-frazeologik, fonetik, morfologik, so‘z yasalishi va sintaktik sathlarda sinxroniya va diaxroniya nuqtai nazaridan funksional qatlamlami mohiyati va o‘ziga xosliklarini o‘rganadi”<sup>12</sup>. Stilistikada parallel sinonimik til ifodalaridagi ma’noviy va ekspressiv nozikliklar, lisoniy birliklarning o‘zaro munosabatdosh variantlari o‘rganiladi. Stilistika “adabiyot vositalarining uslubiy funksiyalarini o‘rganadi va unda tilning kommunikativ va estetik tamoyillarini sintez qilish usullarini ochib beradi”<sup>13</sup>.

Tarjima stilistikasi turli tizimli tillar tizimining stilistik qonuniyatlari bilan tanishtirish, turli uslubiy yo‘nalishdagi yozma va og‘zaki matnlarni tahlil, talqin va tarjima qilish, madaniyatlararo farqlarni hisobga olgan holda adekvat tarjima qilish malakalarini shakllantiradi.

Har bir til o‘zining iboralari, idiomalari, frazeologik birliklari va turli ma’noli so‘zlarning keng qo‘llanilishi bilan turli-tumandir. “Polisemiya – so‘zning ko‘p ma’noliligini anglatadi. Polisemiya predmetlar, voqeliklar o‘rtasidagi

---

<sup>9</sup> Mildred I. Larson, *Meaning-based translation. A guide to cross-language equivalence*. New York and London, University Press of America. 1984. – 537 p.

<sup>10</sup> Roger T. Bell, *Translation and Translating: Theory and Practice*. London: Longman, 1997, 5 – 299 p.

<sup>11</sup> Саломов Ф. Таржима ташвишлари. Ғафур Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1983, – Б.149-150

<sup>12</sup> <https://uzpedia.uz/pedia/uslubshunoslik>

<sup>13</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Stilistika>

o'xshashliklarni umumlashtirish natijasida, bitta so'z doirasidagi turli xil ma'nolarni shakllantirish usulidir"<sup>14</sup>.

Ingliz tilidagi aksariyat so'zlar polisemantikligini aytish mumkin. Misol sifatida polisemantik lug'atdagi "single" so'zini olsak, u ingliz tilida ko'p ma'noga ega, masalan, 1) "one only" ("bitta", "yakka"), 2) "not married" ("bo'ydoq"), 3) "separate from other things" ("alohida", "yagona").

Sinonim so'zlarni o'rganish uchun dunyo olimlari qator izlanishlar olib borishgan bo'lsa-da, zamonaviy tilshunoslar hali-hanuz ularning klassifikatsiyasi, sinonim so'zlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va ularning hosil bo'lish omillari, shuningdek, sinonimlar ko'p aspektli va polifunksional hodisa bo'lganligi tufayli, sinonimik qatordagi so'zlarning ma'nolari o'rtasidagi farq borasida ilm ahli orasida ko'plab bahs va munozaralar yuzaga keladi.

Tarjimaning ishonchliligi va muvofiqiligini ta'minlash uchun tarjimon sinonimlar, ularning toifalari va ma'nolari o'rtasidagi farqlarni tushunishi muhimligini ta'kidlash lozim. Sinonimlardan foydalanish orqali tarjimon muallifning so'zlarini to'g'ri anglab, ularni boshqa tilga aniq o'girish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tarjima jarayonida qo'llaniladigan tarjima turlari va usullaridan foydalanish muhim bo'lgan tarjima vositalar(turlar)ining alohida o'rni va vazifasi bor.

So'zma-so'z tarjima qilish hamda kalkalash usullari keng tarqalgan metodlardan biri bo'lib, unda har bir so'z o'z lug'aviy ma'nosiga ko'ra tarjima qilinadi. Bu tarjima usullari, asosan, asliyat tildagi ma'lum ibora, birikma yoxud so'zning ekvivalenti tarjima tilida mavjud bo'lmaganda qo'llaniladi. Asos sifatida asardan qo'yidagi misolni keltirish mumkin:

Asliyat matni: – *O'zing uchun o'l etim*, degan gap bor, Mahmud... Yur, darvozaxonaga kiraylik. Bir sir aytamen. Og'zing-dan chiqarma! Ko'prikni yondiramiz!<sup>15</sup>

I.To'xtasinov, U.R.Yo'ldoshev, A.A.Xamidov tarjimasi: "*Die for your sake, orphan, nobody else will help you. Makhmud, do you remember this saying? Let's enter your yard. Can you keep a secret?*" and he blurted out at once.<sup>16</sup>

K.Ermakova tarjimasi: "*Die to save yourself, orphan, no one else will save you. Remember the saying, Makhmud? Let's go into our courtyard. Can you keep a secret?*" and he went on without pausing for breath, "*We'll burn the bridge, delay the enemy, got it?*"<sup>17</sup>

So'zlashuvda bot-bot qo'llaniladigan Asliyat matnidagi ibora ("o'zing uchun o'l yetim") o'zbek kitobxonlari uchun "maqsadga erishish uchun har bir kishi o'zi harakat qilmog'i lozim" degan ma'noni anglatadi. Ingliz tillarida keltirilgan tarjimalarda ibora o'zbek tarjimonlari tomonidan so'zma-so'z tarjima qilingan,

<sup>14</sup> <https://imlo.uz/word/polisemiya>

<sup>15</sup> Қодиров П. Юлдузли тунлар / П.Қодиров. – Адабиёт учкунлари, 2018. – Б.13.

<sup>16</sup> *Starry nights: novel* / Bobur. Translators: I.M. Tukhtasinov, U.R. Yoldoshev, A.A. Khamidov. Editor-in-Chief: E. Muratova, Sh. Sirojiddinov. Editors: Elise Brittain (USA). – Samarkand: SamSIFL, 2018– P.52.

<sup>17</sup> Qodirov P. Babur. *Starry nights: novel*/ translated by Carol Ermakova – France: La Maison de L'Ouzbekistan, 2021. – P.78.

ingliz tarjimoni esa, modulyatsiya usuli orqali maqol mazmunini ifodalashga uringan. Ingliz tilida mavjud “if you want something done right, do it yourself” qabilidagi maqollar ekvivalent sifatida tanlanishi ham mumkin edi.

Asliyatning tiliga mos muqobil variant topishi, uning ma’no va mazmun xususiyatlarini yoki shakli saqlangan yoki o’zgartirgan holda berishi, transliteratsiya, izoh berish va badiiy tarjimadan ko’ra ko’proq ilmiy tarjima usullaridan foydalanganligi kuzatildi:

Navbatdagi misolda o’zlashtirish va eksplikatsiya usullari yordamida kiyim turini bildiruvchi “chakmon” realiyasining o’zbek va ingliz tarjimonlari tomonidan o’girilgan variantidan namuna keltiramiz. Ikkala tarjima namunasida ham, mutarjimlar realiyani transliteratsiya/transkripsiya usulidan foydalanib o’girishgan va qo’shimcha ravishda matn ostida o’zlashma so’zga izoh keltirishgan, uni ingliz kitobxoniga tanishroq bo’lgan boshqa xorijiy realiya “caftan” orqali tushuntirishga harakat qilingan. K.Ermakova izohda realiyani batafsilroq tushuntirishga harakat qilib, kiyimni qishki va erkaklarga tegishliligi haqida ma’lumot qo’shib ketgan.

Asliyat matni: Boshiga otasining qora jun chakmonini yopinib chiqqan ekan. Yomg’irda ho’l bo’lib og’irlashgan chakmon uning nozik bo’yniga og’irlik qildi.<sup>18</sup> I.To’xtasinov, U.R.Yo’ldoshev, A.A.Xamidov tarjimasi: While running out from the house for the meeting with Takhir, the girl had thrown over her head her father’s black woolen chakmon. Having been soaked with the rain it became very heavy and bulky. (Chakmon – caftan-type outerwear)<sup>19</sup>

K.Ermakova tarjimasi: Robia had hastily thrown her father’s black woolen chekmen over her head as she hurried out of the house to meet Tahir. (a long winter kaftan, usually made of wool, and worn by men. (Translator’s note))<sup>20</sup>

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar (Bobur)” romanida leksik-stilistik vositalarning tarjimada ifodalanishi”** deb nomlangan bo’lib, ushbu bobda tarjima turlari va usullari, metafora, metonimiya va kinoyalar tarjimasi, tarjimada idioma, o’xshatish, vulgar so’zlar va arxaizmlarning ifodalanishi, o’xshatish va gradatsiya san’atlarining tarjimada berilishi, mubolag’a, evfemizm va tasviriy ifodalarning tarjima asarida aks etishi asoslangan.

Metafora haqida benihoya katta miqdordagi ilmiy adabiyotlar yaratilgani, adabiyotlarning aksariyatida metaforaning asosiy mohiyati o’xshatish, qiyoslashdan iborat ekanligi ma’lum. Manbalarga ko’ra Aristotel o’zining “Ritorika” asarida metafora bilan o’xshatish o’rtasida katta farq yo’qligini, yaxshi o’xshatishni osonlik bilan metaforaga aylantirish mumkinligini, ularning mohiyatida yaqinlik mavjudligini ta’kidlagan.

Metonimiya so’zi yunoncha metonimiya – “yangi nom qo’yish” “nomni o’zgartirish”, “qayta nomlash” demakdir. Makon va zamondagi o’zaro bog’liqligi asosida bir narsa va hodisaning nomini ikkinchisiga ko’chirish metonimiyadir.

<sup>18</sup> Қодиров П. Юлдузли тунлар / П.Қодиров. – Адабиёт учқунлари, 2018, –Б.3

<sup>19</sup> Qodirov P. Starry nights: novel/ Bobur. Translators: I.M.Tukhtasinov, U.R.Yoldoshev, A.A.Khamidov. – Samarkand: SamSIFL, 2018. – P.5.

<sup>20</sup> Qodirov P. Babur. Starry nights: novel/ translated by Carol Ermakova – France: La Maison de L’Ouzbekistan, 2021. – P.18.

Metonimiyada biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqasiga ko‘chiriladi va u yangi nom bilan ifodalanadi. Biroq bu nomlanish narsalar o‘rtasidagi yaqinlik va aloqadorlikka asoslanadi. Bunda o‘xshashlik nazarda tutilmaydi. Boshqacha aytganda, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ikkita predmet, belgi yoki holatning birining nomi tejamkorlik tufayli ikkinchisini anglatadi, masalan:

Asliyat matnida: Bu yilgi ro‘za yoz chillasiga to‘g‘ri kelgan, jazirama kunlarda tong sahardan kechqurun qorong‘i tushguncha *tuz totmay* och yurish ko‘p odamning sillasini quritar, buning ustiga tashnalik azobi qo‘shilardi. Ro‘zadorlar kunni qanday kech qilishlarini bilmay, tezroq qosh qorayishini intizorlik bilan kutishardi.<sup>21</sup>

I.To‘xtasinov, U.R.Yo‘ldoshev, A.A.Xamidov tarjimasida: The fast of this year concurred with the hottest summer days. One could eat and drink at night till the dawn while there were shining stars in the sky, but *one couldn't even rinse one's mouth with water* from the morning to the night before the first star appeared. It was distressful to bear the hunger and particularly thirst during the whole long hot day. People looked forward to the twilight, the evening pray.<sup>22</sup>

K.Ermakova tarjimasida: That year, the fast coincided with the very hottest days of summer. You could eat and drink your fill at night, before dawn, while stars still twinkled in the sky but *you couldn't even rinse your mouth with water* from morning until late evening, until the first stars shone again. Putting up with hunger – and especially with thirst – all the long scorching day was real torture; everyone waited impatiently for dusk, for the evening call to prayer.<sup>23</sup>

“*Tuz totmoq*”-metonimik ko‘chim mahsulot va uning tarkibi o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslangan bo‘lib, “tuz totmoq”- “ovqat yemoq” mazmunini ifodalaydi. Mazkur parchada metonimiya mubolag‘a hosil qilishda ham ko‘maklashgani va ingliz tilida ekvivalent metonimik birikmaning mavjud emasligini hisobga olgan holda o‘zbek va ingliz tarjimonlar bir xilda modulyatsiya usulidan foydalangan holda “*couldn't even rinse one's mouth with water*”-“og‘izni hatto suv bilan chayqamasdan yurmoq” deya tarjima qilishni ma’qul ko‘rishgan. Bu borada tarjimonlar “fast” - bir muddat ovqat yemaslik, ro‘za tutmoq fe’li bilan berishi yoki, abstain yoki refrain –o‘zini nimadandir tiyish fe’llari yoki “keep themselves from eating” birikmasi bilan berishi va parafraza usulidan foydalanishi mumkin edi. Biroq bunda ham metonimiya, ham mubolag‘adan voz kechilishi kuzatilgan bo‘lardi. Stilistik bo‘yoqdorlikni saqlashni maqsad qilgan tarjimon “*couldn't even eat a crumb*” (“ushoqni ham yemaydi”) metonimik birlikdan foydalanishi mumkin. Asl nusxa matnida “tuz” orqali ovqat ifodalangan bo‘lsa, ingliz tilida uni “crumb”- “ushoq” orqali berish mumkin.

Kinoya tasviriy vosita sifatida badiiylikda muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, asar badiiyatida xalqchilik ruhini ta’minlashda uning ahamiyati benihoya katta. So‘z

<sup>21</sup> Қодиров П. Юлдузли тунлар / П.Қодиров. – Адабиёт учкунлари, 2018. – Б.4.

<sup>22</sup> Starry nights: novel / Bobur. Translators: I.M. Tukhtasinov, U.R. Yoldoshev, A.A. Khamidov. Editor-in-Chief: E. Muratova, Sh. Sirojiddinov. Editors: Elise Brittain (USA). – Samarkand: SamSIFL, 2018. – P.8.

<sup>23</sup> Qodirov P. Babur. Starry nights: novel/ translated by Carol Ermakova – France: La Maison de L’Ouzbekistan, 2021. – P.22.

san'atkorlari undan foydalanar ekan, badiiylik mezonini o'ziga xos tasvirlashda unga alohida e'tibor bilan qaraydilar.

Asliyat matni: – Maslahatingiz bilan tuzilgan reja sharofatli chiqdi!— dedi Ahmad Tanbal uy egasiga mamnun ko'z tashlab.

– Ha, Sherimbek endi jiyani xavf-xatardan yaxshilab “xalos qilur”. Uning eng nufuzli bekiga aylanish uchun Olatog'dan ham oshur.

– Endi biz Boburning xatardan qo'rqib qochganini xaloyiqning qulog'iga yetkazmog'imiz kerak. Bobur shunday paytda ota yurti Andijonni tashlab ketganini xalq bilsin, undan ixlosi qaytsin. Ana undan so'ng Jahongir mirzoning taxtga o'tirishiga hech bir monelik qolmas.<sup>24</sup>

I.To'xtasinov, U.R.Yo'ldoshev, A.A.Xamidov tarjimasini: – “Your plan is succeeding!” Ahmad Tanbal told favorably to the master of the house.

– “Well, now Sherimbek “*will avoid*” him from troubles. He will do his best to become the closest bey to Babur; he will take him over Alatau, thank God...”

– “Meantime we... we now... we tell people about Babur's escape... just he's gone away from danger. Let them know how Babur left his native Andijan in such a difficult time. After this... then Jahongir Mirza will ascend the throne.<sup>25</sup>

K.Ermakova tarjimasini: “The plan we hatched on your advice could not have turned out better!” he said amicably.

“Yes. Now good old Sherimbek will *lead his nephew out of danger*. He would crawl out of his own skin to become Babur's most trusted beg, he'll take him beyond Alatau, Allah be praised...”

“And we... now we... shall spread rumours that Babur has fled... He ran from danger, and that's that. Let them know how Babur abandoned his native Andijan in its hour of need. And then afterwards... Prince Mirza Jahangir will take the throne.”<sup>26</sup>

Yuqoridagi misolda kinoya sifatida ishlatilgan birikma Asliyat matnida qo'shtirnoq ichiga olinib, so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilayotganligiga ishora qilinadi. O'zbek tarjimonlari matnda kinoyani ajratib ko'rsatish uchun punktuatsion belgilardan foydalangan bo'lsa, ingliz tarjimoni ulardan umuman foydalanmagan va kitobxonning o'ziga kinoya mazmunini anglashni kitobxonga qoldirgan. Mazkur parchada Sherimbekning sa'y-harakati tufayli, yosh Bobur aslida xavfdan xalos bo'lish o'rniga yovuz niyatli beklar tuzog'iga tushishini beklarning suhbatida tushunish mumkin bo'ladi.


Quyida asliyat matni va tarjima matnlarida uslubiy vositalarning qo'llanilishini asarning bir bobi misolida keltirilgan tahlilni havola qilamiz:

*1-diagramma.* Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar (Bobur)” romanida qo'llanilgan leksik-stilistik vositalar, ularning o'zbek va ingliz tarjimonlari tarjimalarida aks etishi (1-bob misolida)

<sup>24</sup> Қодиров П. Юлдузли тунлар / П.Қодиров. – Адабиёт учқунлари, 2018. – Б.24.

<sup>25</sup> Starry nights: novel / Bobur. Translators: I.M. Tukhtasinov, U.R. Yoldoshev, A.A. Khamidov. Editor-in-Chief: E. Muratova, Sh. Sirojiddinov. Editors: Elise Brittain (USA). – Samarkand: SamSIFL, 2018. – P.40.

<sup>26</sup> Qodirov P. Babur. Starry nights: novel/ translated by Carol Ermakova – France: La Maison de L'Ouzbekistan, 2021. – P.61.



Asliyat matnining tahlilga tortilgan qismida muallif tomonidan 47 ta metafora, 26 ta epitet (sifatlash), 11 ta o'xshatish (simile), 32 ta metonimiya va 27 ta mubolag'a san'atlarining qo'llanilish holatlari kuzatilgan bo'lib, o'zbek tarjimonlari I.To'xtasinov, U.Yo'ldoshev, A.Hamidov tarjimasida metafora 21 ta, epitet (sifatlash) 17 ta, o'xshatish (simile) 8 ta, metonimiya 12 ta va mubolag'a 12 ta holatda aks etgan.

